

THE EFFECT OF DRUGS ON HUMAN PHYSIOLOGY AND MEASURES TO FIGHT AGAINST DRUGS

Sattarov Alisher Nurmaxammatovich

Toshkent shahar yuridik texnikumi “Xususiy - huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotation: The growing number of drug addicts in the world and in the country is currently affecting many young and middle-aged people. Of course, this is due to the fact that most people are overly entertained. And it will cost them their lives and their health. This article discusses the effects of drugs on human physiology and measures to combat them.

Keywords: drug, human, physiology, drugs, AIDS, HIV.

Asosiy qism

Giyohvandlik (Narkomaniya) – (yunoncha narke – karaxtlik va maniya – telbalik, jahl, shod-hurramlik) narkotik va narkotik ta’sirga ega bo‘lgan moddalarni iste’mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik. Giyohvandlik giyohvand moddalarni doimiy qabul qilish [natijasida vujudga keladi](#), chunki ushbu hastalik bilan og‘rigan kishining jismoniy va ruhiy holati humorini bosadigan tegishli narkotik modda iste’mol qilishiga bog‘liq. Narkomaniya organizmda chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi va uni tanazzulga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanib borib surunkali davom etadi. Narkotik moddalar dastlab xursandlik, vaqtichog‘lik, xotirjamlik hissini uyg‘otib, kayf qildirishi sababli iste’mol qilinib bora-bora kasallikka aylanadi. Quyidagi ikki holda narkotik moddalarga o‘rganib qolish mumkin. Birinchi holda kishi o‘z hoxishidan tashqari, e’tiborsizligi natijasida narkotik moddalarni xumor qiladigan bo‘lib qoladi. Sal narsa ta’sir qilib, tashvish kuchayib ketadi, ba’zi kasallar og‘riq, uyqusizlik va dardning boshqa tomonlaridan qutulish maqsadida oxirini o‘ylamay, vrach ko‘rsatmasini ham pisand qilmay, o‘zboshimchalik bilan narkotik modda dozasini oshirib qabul qilishadi.

Bunday bemorlar odatda o‘z ahvollarining yaxshilanishi dori tufayli bo‘layotganini sezib, uni ichishni davom ettira boshlaydilar va ko‘pincha ahvollarining og‘irligidan nolib vrachni aldaydilar. Bu zaylda ish tutishning oqibati yomon bo‘lib, narkotik moddalarga unchalik zarurat bo‘lmasa ham [uni qabul qilinaueradi](#), dorining esa organizmga narkotik ta’siri yanada orta boradi va natijada narkotik moddaga moyillik kuchayib, u xumor qiladigan bo‘lib qoladi. Narkotik modda dozasini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirib borish, uni tez-tez va uzoq muddat qabul qilish narkomaniyaga olib keladi.

Ikkinchi hol ongli ravishda kayf qilish maqsadida narkotik moddalarga o‘rganishdir. Narkomaniyaga odatda o‘zini tiya bilmagan, ruhan zaif, irodasi kuchsiz, [birovlariga taqlid qiladigan](#), xumorni tarqatishdan boshqa narsani bilmaydigan o‘ta xudbin kishilargina beriladi. Bunday kishilar o‘z mayllariga qarshi yurolmaydilar. Shuning uchun ularning kayf qilishga moyilliklari kuchli bo‘ladi. Bangilik avj olib ketadi. Bu kasallikka uchraganlarda hastalik juda og‘ir kechib, odatda kutilmagan yomon oqibatlariga olib keladi.

Bangilikka muhtalo bo‘lganlar narkotik moddalarni qayta-qayta va ko‘p miqdorda iste’mol qilgisi kelaveradi. Keyinchalik esa narkotik moddalarni qabul qilmasdan turolmaydigan, u bo‘lmasa xuddi “biror narsa yetishmayotganday” bo‘lib qoladi. Bunday ahvoldan qutulish va o‘zini yengil his qilish uchun yana narkotik moddaga ruju qiladi. Shu tariqa narkotik moddalarga moyillik – bangilik kelib chiqadi. Bora-bora organizmda narkotik moddalarga moyillik shu darajada kuchayib ketadiki, narkotik moddalar kuchini yo‘qotgandek bo‘lib qoladi, endi u avvalgidek xumor tarqatish uchun doridan ko‘proq miqdorda iste’mol qilgisi keladi. Agar narkoman o‘z vaqtida narkotik qabul qilmasa, organizmda kuchli ruhiy va jismoniy o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Bangi odam navbatdagi kayfni surish uchun har [qanday pastkashliklarga boradi](#), sotqinlik, aldash, zo‘rlilik, o‘g‘riliklardan toymaydi. Organizmga narkotik modda kirmasa xumorlik boshlanadi: organizm og‘ir ahvolda qolib, chuqur ruhiy va jismoniy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Hastalik rivojlangan sari organizmda darmon qurishi ham kuchaya boradi, endi narkotik moddaning kuchi organizm uchun og‘irlik qiladi. Narkotik moddalarning oldingi iste’mol qilib yurgan dozasi endi yomon ta’sir qila boshlaydi. Zaharlanish og‘ir kechadi. Narkotik moddaning dozasi ozgina oshishi bilan bemor o‘lib qolishi mumkin. Narkomaniyani davolash faqat psixiatriya kasalxonalarida vrachlarning qattiq nazorati ostida olib borilishi kerak.

BMT ning narkotik moddalarni nazorat qilish va jinoyatchilikning oldini olish boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, bir yilda Afg'onistonda 4,100 tonna qoradori yetishtirilgan. Uning 30 foizdan ko'prog'i MDH davlatlari hududi orqali o'tadi. Narkomafiya faoliyati inson savdosi, noqonuniy mablag'larni yuvish hamda qurol-yaroq kontrabandasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu hol nafaqat davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy muammosi, balki mamlakat xavfsizligi uchun ham xatar tug'dirishini mutaxassislar ta'kidlashadi.

Narkotraffik yo'lining O'zbekiston orqali o'tishi mamlakatdagi yoshlarning OITS ga chalinish hollarini ham ko'paytirgan.

Narkotraffik yo'lining O'zbekiston orqali o'tishi mamlakatdagi giyohvandlar sonining ham ortib borishiga olib kelayotgani aytiladi. Narkotik iste'mol qilishga o'rganib qolgan aksariyat yoshlar giyohvandlikka berilish sabablarini tushuntirishga harakat qilarkan, har bir mahalla va mavzda giyohvandfurushlarning borligi yoshlar orasida narkomanlarning ko'payayotgani boisidir, deb hisoblaydi.

Boshqa davlatlardagi singari, O'zbekistonda ham narkotik moddalar iste'mol qiluvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etayotgani mutaxassislarni tashvishga solgan. Ayni paytda respublikada faoliyat yuritayotgan Birlashgan millatlar tashkiloti, Amerika qo'shma shtatlari, Yaponiya va boshqa bir qator davlat tashkilotlari o'z faoliyatlarini yoshlarni narkotik moddalar iste'molidan qaytarish, giyohvandlarning OIV infeksiyasi yuqtirib olishiga qarshi tadbirlarga qaratmoqdalar.

"World Vision" Yaponiya hamda Yaponiyaning JICA tashkiloti loyihasi yoshlar orasida OITS va giyohvandlikning oldini olish hamda targ'ibot ishlariga qaratilgan, deydi loyiha milliy rahbari Shonosir Shovahobov: "Ikkinchi yo'nalish, adashibmi yo bo'lmasa bir yoshlik qilib, sho'xlik qilibmi giyohvandlikka duch kelgan, o'shasiz turolmaydigan bo'lib qolgan yoshlarga madad berish. Avvalo ularga mana shu odati ularni nima oqibatlariga olib kelishi mumkin, o'shalardan saqlanish uchun nimalarga e'tibor berish kerak, o'zini qanday tutishi kerak, ularni shundan boxabar qilib qo'yish".

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, respublikadagi giyohvand moddalar iste'mol qiluvchilar soni 30 mingdan ortgan. Bu holat esa OITS ning ko'payishiga ham sabab bo'lmoqda.

Mutaxassislar fikricha, narkotraffikga qarshi kurash muammosini hal etish davlat miqyosidagi ishdir. Bu borada O'zbekiston 1995-yildan Birlashgan millatlar tashkilotining narkotiklarga qarshi kurashga taalluqli konvensiyalari hamda MDH va bir qator dunyo davlatlari bilan o'zaro kelishuvlarni imzolagan.

Tahlilchilarning fikricha, giyohvand moddalarning keng tarqalishi bir qator ijtimoiy muammolarga sabab bo'ladi. Jumladan, demografik fojealarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jinoyatchilik ko'zga tashlanadi. BMTning jinoyatchilik va giyohvand moddalar ustidan nazorat boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda giyohvandlikka ruju qo'yg'lar soni dunyoda 300 million kishidan oshib ketdi. Eng ko'p iste'mol qilinadigani nasha ekani aytiladi.

Jahonda qayd qilinadigan o'limlarning 43 ta sababidan giyohvandlik oqibatida sodir bo'ladigan o'lim 19-o'rinda turadi. Giyohvandlikka qarshi kurashda ilk bor bundan yuz yillar muqaddam hamkorlik qilina boshlandi. 1999-yilning fevral oyida 13 ta davlat vakillari Osiyoda giyohvand moddalar yetishtirilishiga qarshi kurash maqsadida Shanxayda to'planishdi. O'shanda Shanxay komissiya tashkil etilgan edi.

BMT Bosh Assambleyasining tan olishicha, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, jahonda giyohvand moddalar noqonuniy savdosi muammoligicha qolmoqda. Bu muammo hamon jiddiy tahdid sifatida ko'riladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar orasida qayd etiladigan o'limlarning 1,3 foizi giyohvandlik oqibatida yuz berar ekan. Bir yilda 211 mingta o'lim aynan giyohvandlik oqibatida kelib chiqadi. Yevropada giyohvandlik oqibatida halok bo'layotganlarning o'rtacha yoshi 35 yoshni tashkil qiladi. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda giyohvandlik oqibatida 1,6 million kishi OIV ga muhtalo bo'ladi. 7,2 million kishi esa gepatit C virusini yuqtirib oladi. 1,2 million kishi gepatit B virusiga chalinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [O'zbekiston](#) Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. T.G. Kobyakova, O.A. Smerdov "Giyohvandlik va alkogolga qaramlikning birlamchi profilaktikasi bo'yicha o'smirlar ko'ngillilar xizmatini tashkil qilish nazariyasi va amaliyoti".
3. <https://navoi-ibusm.uz/news/154>